




SUHBAT JARAYONIDA BERILADIGAN NAMUNAVIY SAVOLLAR TO‘PLAMI

60720700 – Yengil sanoat muhandisligi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha

1. Mamlakatda o‘z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish

1. O‘zbekiston Respublikasida to‘qimachilik va yengil sanoatni rivojlantirishga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar hamda davlat dasturlarining mazmun-mohiyati va strategik ahamiyati nimalardan iborat?
2. Hozirgi kunda mamlakatimizda to‘qimachilik va yengil sanoat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlari, ustuvor vazifalari va kutilayotgan natijalari qanday?
3. O‘zbekiston to‘qimachilik va yengil sanoat tarmog‘ini modernizatsiya qilishda xalqaro tajriba hamda ilg‘or texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati nimada?
4. Respublikamizda to‘qimachilik va yengil sanoatni rivojlantirish bo‘yicha qaysi xorijiy davlatlar bilan hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan va ushbu hamkorlik qanday natijalar bermoqda?
5. O‘zbekiston to‘qimachilik sohasidagi ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatga salmoqli hissa qo‘shgan yetakchi olimlar kimlar va ular yaratgan ishlanmalarning amaliy ahamiyati nimalarda namoyon bo‘ladi?
6. Mamlakatimizda to‘qimachilik va yengil sanoat korxonalarini texnik hamda texnologik modernizatsiya qilishga qaratilgan qanday xorijiy investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda?
7. To‘qimachilik va yengil sanoat sohasida qabul qilingan konsepsiyalar, davlat dasturlari va amalga oshirilayotgan islohotlarning hududlar iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri qanday?
8. Respublikada to‘qimachilik mahsulotlari eksportini kengaytirish va ularning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?
9. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida ISO, OEKO-TEX va boshqa xalqaro standartlarni joriy etishning ahamiyati nimadan iborat?

10. Yengil sanoatda resurs tejamkor va ekologik xavfsiz texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari hamda rivojlanish istiqbollari qanday?
11. To'qimachilik tarmog'ida klaster tizimini rivojlantirishning asosiy afzalliklari va mavjud muammolari nimalardan iborat?
12. O'zbekiston to'qimachilik sanoatida mahalliy xomashyo bazasini rivojlantirish bo'yicha qanday strategik vazifalar belgilangan?
13. To'qimachilik va yengil sanoat tarmoqlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish orqali raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?
14. To'qimachilik va yengil sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirish hamda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish bo'yicha qanday davlat qo'llab-quvvatlash choralari amalga oshirilmoqda?
15. To'qimachilik va yengil sanoat uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari hamkorligi qanday yo'lga qo'yilgan?
16. To'qimachilik va yengil sanoatda mahsulot sifati, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish bo'yicha qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?
17. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, ularning investitsion va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qanday iqtisodiy mexanizmlar joriy etilgan?
18. To'qimachilik va yengil sanoat korxonalarida mehnatni muhofaza qilish, xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish hamda xalqaro mehnat standartlarini joriy etish bo'yicha qanday chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?
19. To'qimachilik va yengil sanoat mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda milliy brend sifatida rivojlantirish hamda targ'ib qilish bo'yicha qanday davlat siyosati olib borilmoqda?
20. To'qimachilik va yengil sanoatni barqaror rivojlantirishda "yashil iqtisodiyot" tamoyillari, ekologik barqaror ishlab chiqarish va aylanma iqtisodiyot (circular economy) yondashuvlarining o'rni qanday?
21. To'qimachilik va yengil sanoat tarmoqlarida ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish bo'yicha qanday islohotlar amalga oshirilmoqda va ularning amaliy ahamiyati nimada?
22. To'qimachilik va yengil sanoatda xotin-qizlar hamda yoshlar bandligini ta'minlash, kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha qanday davlat dasturlari amalga oshirilmoqda?
23. O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (WTO) a'zo bo'lish jarayoni to'qimachilik va yengil sanoat tarmog'ining rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda?
24. To'qimachilik va yengil sanoatda mahsulotlarni raqamli markirovkalash,

kuzatuvchanlik (traceability) va ta'minot zanjiri shaffofligini ta'minlash bo'yicha qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?

25. To'qimachilik va yengil sanoat korxonalarida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, sifat menejmentini rivojlantirish hamda xalqaro boshqaruv standartlarini joriy etishning ahamiyati nimada?

2. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish)

1. "Yengil sanoat muhandisligi" ta'lim yo'nalishini tanlashdan maqsadingiz nima?
2. Yengil sanoat muhandisi kasbining jamiyat va iqtisodiyotdagi o'rni nimadan iborat?
3. Yengil sanoat muhandisiga qo'yiladigan asosiy kasbiy va shaxsiy fazilatlar nimalardan iborat?
4. Yengil sanoat muhandisligi kasbining ijtimoiy ahamiyati nimada namoyon bo'ladi?
5. Yengil sanoat muhandisining ishlab chiqarish jarayonidagi asosiy vazifalari nimalardan iborat?
6. Ishlab chiqarish korxonalarida injener, texnolog, master va tsex boshlig'ining vazifalari hamda o'zaro hamkorligi qanday tashkil etiladi?
7. Yengil sanoat muhandisligi yo'nalishini tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillar nimalardan iborat?
8. Yengil sanoat muhandisi sifatida kelajakdagi kasbiy faoliyatingizni qanday tasavvur qilasiz?
9. Mazkur kasbning mehnat bozoridagi talab va istiqbollari qanday?
10. Yengil sanoat muhandisining ishlab chiqarish sifati va mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlashdagi o'rni qanday?
11. Yengil sanoat sohasida uzluksiz ta'lim va malaka oshirish nima uchun muhim?
12. Muhandislik faoliyatida ijodkorlik va innovatsion fikrlash qanday ahamiyatga ega?
13. Yengil sanoat korxonalarida jamoada ishlash ko'nikmalari nima uchun zarur?
14. Muhandisning kasbiy etikasi va mas'uliyati deganda nimani tushunasiz?
15. Zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish muhandisning kasbiy rivojlanishiga qanday ta'sir qiladi?
16. Yengil sanoat mahsulotlari sifatini oshirishda muhandisning hisssasi nimada?
17. Yengil sanoat tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni qanday?
18. Mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlashda yengil sanoat muhandisining roli nimada?
19. Kasb tanlashda shaxsiy qiziqish va qobiliyatning ahamiyati nimada?
20. Yengil sanoat sohasida faoliyat yuritish uchun qanday zamonaviy

kompetensiyalar zarur?

21. Yengil sanoat muhandisi uchun xorijiy tillarni bilish nima uchun muhim?
22. Raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish kelajakdagi kasbiy faoliyatga qanday imkoniyatlar yaratadi?
23. Yengil sanoat sohasida ekologik mas'uliyat va barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qilish nima uchun muhim?
24. Kelajakda yengil sanoat sohasida qanday yangilik va innovatsiyalarni joriy etishni istardingiz?
25. "Yengil sanoat muhandisligi" ta'lim yo'nalishini tanlayotgan abituriyentlarga qanday tavsiyalar bergan bo'lardingiz?

3. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari)

1. Yengil sanoat muhandisi kasbiy faoliyatida qanday mas'uliyatlarni o'z zimmasiga oladi?
2. Sizningcha, yengil sanoat muhandisi qanday shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak?
3. Yengil sanoat muhandisi bo'lish uchun qanday bilim va ko'nikmalar zarur?
4. Mustaqil qaror qabul qilishda siz uchun qaysi omil muhim: bilim, tajriba, maslahat yoki mas'uliyat? Nima uchun?
5. Har qanday vaziyatda mustaqil qaror qabul qilishni to'g'ri deb hisoblaysizmi? Fikringizni izohlang.
6. Jamoada ishlashni afzal ko'rasizmi yoki mustaqil ishlashnimi? Nima uchun?
7. Sizga mas'uliyatli topshiriq berilsa, uni qanday tashkil qilasiz?
8. Shu kungacha qanday shaxsiy yoki kasbiy yutuqlarga erishgansiz?
9. Murakkab vaziyatlarda boshqalarning fikrini tinglaysizmi? Nima uchun?
10. Sizningcha, inson nima sababdan kasbiy muvaffaqiyatga erisha olmaydi?
11. Besh yildan keyin o'zingizni qanday mutaxassis sifatida tasavvur qilasiz?
12. O'z ustingizda ishlash uchun bugungi kunda nimalarni amalga oshiryapsiz?
13. Kasbiy rivojlanishda intizomning o'rni qanday?
14. Siz uchun mas'uliyatlilik nimani anglatadi?
15. Muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvning ahamiyati nimada?
16. Kasb tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak deb o'ylaysiz?
17. Sizningcha, yaxshi mutaxassisni boshqalardan ajratib turadigan eng muhim sifat qaysi?
18. Xato qilganingizda qanday yo'l tutasiz?
19. Yangi bilimlarni o'rganishga sizni nima undaydi?

20. Chet tillarini bilish kasbiy rivojlanishda qanday ahamiyatga ega?
21. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish kasbiy faoliyatingizga qanday yordam beradi?
22. Jamoada kelishmovchilik yuzaga kelsa, uni qanday hal qilgan bo'ladingiz?
23. Sizningcha, liderlik fazilatlari har bir muhandis uchun zarurmi? Nima uchun?
24. Kelajakda yengil sanoat sohasida qanday yangiliklarni joriy etishni istardingiz?
25. O'zingizni kelajakda raqobatbardosh mutaxassis bo'lishingiz uchun bugundan qanday ishlarni amalga oshiryapsiz?

4. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi

1. To'qimachilik tolalarining sinflanishi qanday amalga oshiriladi?
2. To'qimachilik tolalarining asosiy fizik-mexanik va gigiyenik xossalari nimalardan iborat?
3. Paxta tolasining tuzilishi va asosiy texnologik xususiyatlarini tushuntiring.
4. Tabiiy, sun'iy va sintetik tolalarning asosiy farqlari nimadan iborat?
5. To'qimachilik sanoatida aralash tolalardan foydalanishning afzalliklari qanday?
6. Yigirish korxonalarida foydalaniladigan asosiy xomashyo turlarini sanang va tavsiflang.
7. Xomashyo sifatining yigirish jarayoni va tayyor mahsulot sifatiga ta'siri qanday?
8. Ip yigirish jarayonining asosiy texnologik bosqichlarini tushuntiring.
9. Gazlama ishlab chiqarishning asosiy bosqichlari nimalardan iborat?
10. Trikotaj mahsulotlari gazlama mahsulotlaridan qanday farq qiladi?
11. To'qimachilik korxonalarida qo'llaniladigan asosiy texnologik jihozlarni sanang.
12. Yengil sanoatda mahsulot sifatini baholashning asosiy ko'rsatkichlari qaysilar?
13. To'qimachilik mahsulotlarini sertifikatlashtirishning ahamiyati nimada?
14. To'qimachilik mahsulotlarini markalashda qanday ma'lumotlar ko'rsatiladi?
15. Yengil sanoatda standartlashtirishning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
16. To'qimachilik mahsulotlarida uchraydigan asosiy nuqsonlar va ularning kelib chiqish sabablari qanday?
17. Tikuvchilik ishlab chiqarishining asosiy texnologik bosqichlarini tushuntiring.
18. Zamonaviy tikuv uskunalarning afzalliklari nimada?
19. To'qimachilik korxonalarida mehnatni muhofaza qilishning asosiy talablari nimalardan iborat?
20. Yengil sanoatda energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari qanday?
21. Raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish ishlab chiqarish samaradorligini

qanday oshiradi?

22. To'qimachilik mahsulotlari sifatini nazorat qilishning asosiy usullari qaysilar?

23. Yengil sanoatda ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qanday talablar mavjud?

24. Mahalliy xomashyodan samarali foydalanishning iqtisodiy va texnologik ahamiyati nimada?

25. Yengil sanoat muhandisining ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va boshqarishdagi vazifalari nimalardan iborat?

**“Yengil sanoat texnologiyalari
va jihozlari” kafedrasi mudiri**



H. Jumaniyozov